Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317250

SANOAT KORXONALARI RAQOBATDOSHLIGINI OSHIRISHDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIU Andijon fakulteti, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Kamoliddinov Ozodbek Ziyoyiddin o‘g‘li
TDIU Andijon fakulteti,
Iqtisodiyot 60/23- guruxi, 1-bosqich talabasi.

Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini raqobatdoshligini oshirishda mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solish mustahkam o‘rin egallaydi. Bunda asosiy omil bo‘lib ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati hisoblanib, bu omil jahonning rivojlangan davlatlarida keng tarqalgan va iqtisodiyotning yangidan-yangi tarmoqlarini o‘ziga qamrab olmoqda. Mamlakatimiz sanoat majmui tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning rivojlanishi ularga hizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli ishlab chiqarish korxonalari faoliyati rivojlanishi bevosita ishlab chiqarish va bozor aloqalariga bog‘liq holda amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda sanoat tarmog‘ini rivojlantirish asosida raqobatdosh mahsulotlar sifatini ahamiyati yuqori bo‘lib, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida «aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar ko‘paytirish »[1] vazifasi belgilangan. Bundan kelib chiqqan holadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirish va jaxon andozalari talablariga mos keladigan ishlab chiqarilayotgan raqobatdosh mahsulotlarni sifatliligini ta’minlash, hamda ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarur.

Sifat deganda keng qamrovli tushuncha nazarda tutiladi va u faoliyatning barcha qirralarini ifodalaydi. Sifatning butun tizimidagi muhim tarkibiy kismlarining jumlasi mahsulot sifatidir. Sifat-korxona yoki firmani avtoriteti, brendi, foydani oshirish imkoniyati, korxona faoliyatini rivojlanishi asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda mahsulot sifatiga quyidagicha ta’riflar keltirilgan:

«Mahsulot sifati - bu shu mahsulotdan ma’lum maqsadda foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo‘jaligi ehtiyojlarini, iste’molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir»[2].

Published: 28.03.2024

Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Kamoliddinov Ozodbek Ziyoyiddin o‘g‘li (2024). Sanoat korxonalari raqobatdoshligini oshirishda mahsulot sifatini boshqarishning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317250

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

«Tovar sifati – shartlangan yoki taxmin qilingan extiyojlarni qondirish qobiliyatini beradigan mahsulot yoki xizmatlar xususiyati va tavsiflarining majmui»[3].

«Mahsulotlar sifati deganda-mahsulotni tashkil qilgan barcha xossalari, ya’ni ko‘rsatma bo‘yicha uni iste’molga loyiqligi tushiniladi»[4]. Demak mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarning munosabatlarini, raqobatdosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reja topshiriqlarini bajarish hamda mahsulotga baho belgilash bo‘yicha korxonaning iste’molchilarni extiyojlarini qondira olish munosabatlarini ifoda etadi. Raqobatdosh mahsulotlar sifatliligini ta’minlashda sifatni boshqarish tizimi muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda milliy korxonalarida sifatni boshqarish tizimini jahonda e’tirof etilgan sifat tizimlariga uyg‘unlashuvini ta’minlash nafaqat samarali boshqarishni tadbiq etishi, balki raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini beradi.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat:

- mahsulot sifati darajasini belgilash;
- mahsulot sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi buyum va uni ishlab chiqarish jarayonining faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish va o‘rganish;
- mahsulot sifatini boshqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish va ob’ektga ta’sir ko‘rsatishga tayyorlanish;
- boshqaruvga tegishli buyruqlarni berish;
- ishchi xodimlardan foydalanish darajasi mehnat unumdorligi
- boshqarish natijasida mahsulot sifatining o‘zgarishi haqidagi axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish.

Demak, bizningcha korxona faoliyati samaradorligi va raqobatdoshligini oshirish xamda mahsulotlar sifatliligini ta’minlash uchun mahsulot sifati va boshqarishda sifat to‘garaklarini tashkil etish, standartlashtirish qoidalariga qat’iy amal qilish, standartlashtirish bo‘yicha halqaro hamkorlikni tashkil etish, andozalar, sifat kursatkichlariga ega bo‘lgan namunalarga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, standartlarga rioya kilinishida o‘z-o‘zini nazorat qilishni amalga oshirish, mahsulot sifatining darajasini istiqbollash va me’yorlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yilarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
5. Abduraxmonov K.X Imomov V “O‘zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish” T:. Akademiya 2008 yil. 22-bet.

6. Abdukarimov.I.T, Pardaev.M.K Isroilov B.I “Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili” T:. Iqtisodiyot va huquq dunyosi 2003 yil. 149-bet.
7. Ortikov.A «Sanoat iqtisodiyoti» T.: TDIU, 2004 y. 193 bet.
8. Peregudov. L.V «Mahsulot sifati va raqobatbardoshligini boshqarish» T.: «Moliya», 2002 y. 31 bet.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КООПЕРАТИВЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аблазов Шохрухбек Абдуқаххорович,
АКХАИ таянч докторанти

Annotatsiya: *Ушбу тезисда кўп тузилмали иқтисодиёт, қишлоқ хўжалигида кооперативларнинг тамойиллари, уларни ташкил қилишнинг ўзига хос хусусиятлари ўрганилган ва тадқиқот жараёнида олинган натижалари хусусида сўз юритилган, шунингдек, ўрганиш натижалари асосида фикр ва мулоҳазалар берилган.*

Kalit so‘zlar: *глобаллашув, экспорт, халқаро стандартлар, Organic, Global G.A.P. талаблари, кўп тузилмали иқтисодиёт, қўшма тадбиркорлик, сифатли қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, ишлаб чиқариш воситалари, нархларнинг номутаносиблиги, қишлоқ хўжалиги кооперативлари, янги авлод кооперативлари.*

Бугунги глобаллашув шароитида етиштирилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини яхшилаш, экспортбоб маҳсулот ишлаб чиқаришда халқаро стандартлаштирилган қишлоқ хўжалиги амалиёти Organic, Global G.A.P. талаблари доирасида сертификатлашни жорий қилиш ва экспорт ҳажмини мунтазам ошириб бориш, ишлаб чиқарувчиларнинг истеъмолчилар эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилганлигини ошириш ҳамда илғор хорижий давлатлар тажрибаларини фаол қўллашни тақазо этмоқда.

Бундай шароитда иқтисодий таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим омили сифатида ҳудудий табиий-иқлим ва ижтимоий-иқтисодий шароитларга асосланган хўжалик юритишнинг турли шаклларидан самарали фойдаланиш муҳим бўлиб ҳисобланади.

Кўп тузилмали иқтисодиётга ўтиш, шахсий ва қўшма тадбиркорлик тамойиллари бўйича турли хил хўжалик юритиш шаклларининг мавжудлигига тенг ҳуқуқларнинг қонун ҳужжатларида мустаҳкамланиши иқтисодий фаолиятнинг шартлари ва шаклларини эркин танлаш имкониятини очиб беради. Жамиятни сифат жиҳатидан ўзгартиришнинг умумий занжирида қишлоқ хўжалиги кооперациясининг турли шакллари муҳим ўрин тутади. Қишлоқ хўжалигида иш ҳақининг паст даражаси, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ва